



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING RETSIDIV JINOYATCHILIKNING OLDINI OLIISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvohidova Marjona Rustam qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-kursi kursanti

Toshkent sh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20577667>

Annotatsiya: Mazkur maqolada profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan hamkorlikda retsidiv jinoyatchilikning barvaqt oldini olishdagi o'rni hamda faoliyatning huquqiy-amaliy asoslari tahlil qilingan. Hukumatning sohadagi so'nggi qarorlari ijrosi doirasida «E-ijtimoiy profilaktika» axborot tizimidan samarali foydalanish, muqaddam sudlangan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, ularning bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlarni targ'ib qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, amaliyotda uchrayotgan muammolar o'rganilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: profilaktika inspektori, mahalla yettiligi, retsidiv jinoyatchilik, E-ijtimoiy profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika, soliq imtiyozlari, ma'muriy nazorat, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация: В данной статье анализируются роль инспектора профилактики в раннем предупреждении рецидивной преступности во взаимодействии с «семеркой махалли», а также правовые и практические основы этой деятельности. В рамках реализации последних правительственных решений в данной сфере освещаются вопросы эффективного использования информационной системы «E-ijtimoiy profilaktika», социальной адаптации ранее судимых лиц, обеспечения их занятости и популяризации льгот, предоставленных субъектам

Contact: 99 826 99 56





предпринимательства. Также изучены существующие на практике проблемы и разработаны практические предложения, направленные на совершенствование сферы.

Ключевые слова: инспектор профилактики, семерка махалли, рецидивная преступность, E-ijtimoiy profilaktika, индивидуальная профилактика, налоговые льготы, административный надзор, социальная адаптация.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida jinoyatchilikning shakl va usullari ham tobora murakkablashib bormoqda. Shu jumladan, retsidiv jinoyatchilik – ya’ni shaxsning avval sudlangan bo’lishiga qaramasdan qayta jinoyat sodir etishi – jamiyat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy ta’sir ko’rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. U nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligiga, balki ijtimoiy muhit, aholi bandligi, huquqiy madaniyat va tarbiyaviy tizim holatiga ham bog’liqdir.

So’nggi yillarda O’zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning oldini olish, xususan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda profilaktika inspektorlarining o’rni alohida ahamiyatga ega. Ular mahalla darajasida aholi bilan bevosita ish olib boruvchi, kriminogen vaziyatni o’rganuvchi hamda huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan individual profilaktik ishlarni amalga oshiruvchi asosiy sub’ektlardan biri hisoblanadi.

Retsidiv jinoyatchilikning oldini olishda jazoni o’tab qaytgan shaxslarni jamiyatga moslashtirish muhim yo’nalish hisoblanadi. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, bandlikning ta’minlanmaganligi, psixologik qo’llab-quvvatlashning yetarli emasligi, oilaviy muammolar hamda ijtimoiy muhit ta’siri ko’p hollarda

Contact: 99 826 99 56





qayta jinoyat sodir etishga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli profilaktika faoliyati faqat nazorat bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik yondashuv mexanizmlarini ham qamrab olishi lozim.

2025 yildagi ichki ishlar organlari ma’lumotlariga ko‘ra, qayta jinoyat sodir etgan shaxslarning 58 foizi ish bilan ta’minlanmagan, 21 foizi esa ijtimoiy va psixologik yordam tizimidan chetda qolgan. Bu holat jinoyatchilikning oldini olishda faqat jazo choralari yetarli emasligini, balki kompleks profilaktik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada profilaktika inspektorining retsidiv jinoyatchilikning oldini olishdagi o‘rni, mavjud muammolar, huquqiy asoslar hamda zamonaviy profilaktik mexanizmlarning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Profilaktika inspektorining retsidiv jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslari

Profilaktika inspektorining retsidiv jinoyatchilikning oldini olish borasidagi faoliyati mustahkam normativ-huquqiy bazaga ega. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 34-moddasida retsidiv jinoyat tushunchasi belgilab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan bo‘lishiga qaramay yana qasddan jinoyat sodir etishi retsidiv deb e’tirof etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni profilaktika inspektorining muqaddam sudlangan shaxslar bilan individual ishlash vakolatlarini belgilab beradi. Mazkur qonunga muvofiq profilaktika inspektori profilaktik suhbatlar o‘tkazish, rasmiy ogohlantirish berish, profilaktik hisob yuritish hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni nazorat qilish vakolatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”gi

Contact: 99 826 99 56





Qonuni esa jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish tartibini belgilaydi. Qonunga ko'ra, ma'muriy nazorat sud tomonidan o'ta xavfli retsidivist deb topilgan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum qilingan, qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun ikki va undan ortiq marotaba sudlangan, shuningdek boshqa davlat hududida og'ir jinoyat sodir etib jazoni o'tab qaytgan ayrim shaxslarga nisbatan belgilanadi. Mazkur nazorat profilaktika inspektorining retsidiv jinoyatchilikning oldini olishdagi eng muhim amaliy vositalaridan biri hisoblanadi.


Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-son qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari tayanch punktlari to'g'risida"gi nizomda profilaktika inspektorining hududdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, muqaddam sudlangan shaxslar bilan ishlash hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalari belgilangan.

Shu bilan birga, amaliyot tahlili ayrim normativ mexanizmlar yetarli darajada samarali ishlamayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, profilaktik чопатдбирларни individual qo'llash mezonlari, qayta jinoyat sodir etish xavfini баҳолаш тизими ҳамда muqaddam sudlangan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish tartibi qonunchilikda yetarlicha aniq belgilanmagan.

Profilaktika inspektorining retsidiv jinoyatchilikni oldini olishdagi asosiy faoliyat yo'nalishlari

Profilaktika inspektorlari retsidiv jinoyatchilikning barvaqt oldini olishda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat huquqbuzarliklarni nazorat qiladi, balki muqaddam sudlangan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, qo'llab-quvvatlash hamda takroriy jinoyat sodir etishining oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Contact: 99 826 99 56





Mazkur faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri – jazoni ijro etish muassasalaridan (JIEM) ozod etilgan shaxslarni o‘z vaqtida profilaktik hisobga olish va ular bilan “mahalla yettiligi” hamkorligida manzilli ishlarni tashkil etishdan iboratdir. [1]

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrdagi 754-son qaroriga muvofiq, ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan ishlash tizimi yanada takomillashtirildi. Unga ko‘ra, profilaktika inspektori JIEMdan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslarning yashash sharoiti hamda muammolarini o‘rganib, “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi orqali elektron xulosa tayyorlaydi. [2]

Mazkur tizim orqali shaxsning muammosidan kelib chiqib, tegishli hamkor sub’ektlarga ma’lumot yuboriladi. Jumladan, bandlik masalalari bo‘yicha – hokim yordamchisiga, yoshlar bilan bog‘liq holatlarda – yoshlar yetakchisiga, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha esa – xotin-qizlar faoliga tegishli ma’lumotlar yo‘naltiriladi.

Ayniqsa, muqaddam sudlangan shaxslarning ish bilan ta’minlanmaganligi qayta jinoyat sodir etish xavfini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois zamonaviy axborot texnologiyalari va individual profilaktika usullaridan foydalanish huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish samaradorligini oshirmoqda.

Retsidiv jinoyatchilikning oldini olish tizimidagi mavjud muammolar

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, profilaktika inspektorining retsidiv jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Shunday muammolardan biri – jazoni ijro etish muassasalaridan (JIEM) qaytgan shaxslarni doimiy ish bilan ta’minlash masalasidir.

Amaliyotda ushbu shaxslarning ko‘pchiligi yetarli kasbiy ko‘nikma

Contact: 99 826 99 56





va malakaga ega emasligi sababli mehnat bozorida qiyinchilikka duch kelmoqda. Shu bilan birga, ayrim ish beruvchilarda muqaddam sudlangan shaxslarni ishga qabul qilish bo'yicha ehtiyotkorlik saqlanib qolmoqda. Natijada, ajratilayotgan kvotali ish o'rinlari ko'p hollarda shaxsning barqaror daromad topishiga yetarli imkoniyat yaratmayapti.

Masalan, mahalla tomonidan JIEMdan qaytgan shaxs ishlab chiqarish korxonasiga ishga joylashtirilgan taqdirda ham, unga ko'pincha vaqtinchalik yoki past malakali ish taklif etiladi. Bu esa shaxsning moddiy ahvolini yaxshilashni qiyinlashtirib, qayta huquqbuzarlik sodir etish xavfini saqlab qolishi mumkin.

Faoliyatni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar

Profilaktika inspektorlarining retsidiv jinoyatchilikning oldini olishdagi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, ilgari sudlangan shaxslarni ish bilan ta'minlagan tadbirkorlar uchun belgilangan soliq va subsidiya imtiyozlari haqida targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur. Amaliyotda ko'plab tadbirkorlar hamda ayrim profilaktika inspektorlari ushbu imkoniyatlardan yetarli darajada xabardor emasligi kuzatilmoqda. Shu bois mahalla darajasida huquqiy tushuntirish va axborot targ'ibotini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, profilaktika inspektori va hokim yordamchisi o'rtasidagi hamkorlikni raqamli tizimlar orqali yanada kuchaytirish lozim. Xususan, "E-ijtimoiy profilaktika" tizimi orqali yuboriladigan elektron xulosalarda shaxsni ish bilan ta'minlash zarurati bilan bir qatorda tadbirkorlarga beriladigan imtiyozlar haqida ham ma'lumot aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, jazoni ijro etish muassasalari hamda profilaktika xizmatlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini kuchaytirish zarur. Ozodlikka

Contact: 99 826 99 56





chiqayotgan shaxslarning kasbiy ko'nikmalari haqidagi ma'lumotlarni mahallaga oldindan yuborish ularni tezroq ish bilan ta'minlash imkonini beradi.

Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish muhimdir. Jumladan, "E-ijtimoiy profilaktika" tizimiga sun'iy intellekt elementlarini joriy etish orqali retsdiv xavfi yuqori bo'lgan shaxslarni barvaqt aniqlash va profilaktik choralarni kuchaytirish mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, profilaktika inspektorining retsdiv jinoyatchilikning oldini olishdagi faoliyati faqat nazorat choralariga emas, balki ilgari sudlanganni ijtimoiy moslashtirish va ularni barqaror bandlik bilan ta'minlashga ham uzviy bog'liqdir.

Bu jarayonda "E-ijtimoiy profilaktika" tizimini "mahalla yettiligi" mexanizmlari bilan integratsiya qilish profilaktika ishlarining manzilliligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish profilaktika jarayonlarini tezkor va aniq amalga oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ilgari sudlangan shaxslarni ishga joylashtirgan tadbirkorlar uchun belgilangan soliq va subsidiya imtiyozlarini keng targ'ib qilish ularning bandligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, profilaktika inspektori yetakchiligida mahalla yettiligi bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan manzilli profilaktik chora-tadbirlar retsdiv jinoyatchilik xavfini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.





2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – [Lex.uz].
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – [Lex.uz].
4. “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.04.2019- yildagi O‘RQ-532-son. – [Lex.uz].
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 18.04.2017 - yildagi **PQ-2896-son.** – [Lex.uz].
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi Hukumat qarorlarini tizimlashtirish to‘g‘risida”gi qarori, 01.12.2025-yildagi 754-son. – [Lex.uz].
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 05.09.2023-yildagi 450-son. – [Lex.uz].
8. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining «E-ijtimoiy profilaktika» axborot tizimini joriy etish va undan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi idoraviy me‘yoriy-huquqiy hujjatlari va uslubiy tavsiyalari.

